

## ABDUQAYUM YO‘LDOSHEV HIKOYALARIDA AYOL OBRAZI

NARGIZA USMONOVA

*NamDU filologiya fakulteti,*

*amaliy filologiya yo‘nalishi, 2-kurs talabasi*

tel: +998947213552; e-mail: [nargiza20042807@gmail.com](mailto:nargiza20042807@gmail.com)

*Ilmiy rahbar: ABBOSJON ROHATALIYEV,*

*NamDU o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası o‘qituvchisi*

Tel: +998999326434; e-mail: [rohataliyevabbosjon@gmail.com](mailto:rohataliyevabbosjon@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12743690>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshevning ayrim hikoyalaridagi ayollar obrazining badiiy-estetik va individual-uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Mavzuni ochib berishda yozuvchi poetik taffakkur ko‘lamining o‘ziga xos qirralari ilmiy nuqta‘i nazardan tadqiq etilgan. Maqolada kontekstual, struktur va qiyosiy-tipologik ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

**Kalit so‘zlar:** obraz, konsept, badiiy psixologizm, shakl va mazmun, xarakter, tip, poetik maqsad, badiiy unsur.

**Абстрактный.** В данной статье рассматриваются художественно-эстетические и индивидуально-стилистические аспекты образа женщины в некоторых рассказах писателя Абдукаюма Ёлдошева. В раскрытии темы с научной точки зрения исследуются конкретные аспекты сферы поэтического мышления писателя. В статье использованы контекстуальный, структурный и сравнительно-типологический методы научного исследования.

**Ключевые слова:** образ, концепция, художественная психология, форма и содержание, характер, тип, поэтическая цель, художественный элемент.

**Abstract.** This article examines the artistic-aesthetic and individual-stylistic aspects of the image of women in some stories of the writer Abduqayum Yoldoshev. In revealing the topic, specific aspects of the scope of the writer's poetic thinking are explored from a scientific point of view. Contextual, structural and comparative-typological scientific research methods are used in the article.

**Key words:** image, concept, artistic psychology, form and content, character, type, poetic purpose, artistic element.

Istiqlol davri o‘zbek nasrida o‘zining janr, mavzu, g‘oyalar xilma-xilligi, obrazlar tizimi, shakl hamda mazmun munosabati nuqtai nazaridan yangi bosqichga ko‘tarilganligidan dalolat beruvchi chuqur pafosli asarlar yaratilayotganligi, fikrlarning quyuq va erkin havolanayotganligi bilan xarakterlanuvchi asarlar dunyoga keldi. Ushbu davr ijodkorlarining poetik mahorat qirralarini inkishof qilish, kitobxon sezimlari va ijodkor o‘ylari orasidagi mushtarak rishtalarni aniqlash adabiyot ixlosmandlarining badiiy didi hamda sa‘viyasining oshishiga xizmat qiladi. Ijodini ilmiy tahlil orqali o‘rganmoqchi bo‘lganimiz yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshev biz yuqorida sanagan xususiyatlarni mohirlik bilan o‘z asarlarida in‘ikos toptirgan taniqli yozuvchilardan biridir.

Shu jihatdan, yozuvchi hikoyalarida markaziy o‘rin egallagan ayol obrazining poetik talqinini ochishtadqiqotimiz maqsadini istifoda etadi.

“Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini” mavzusida tadqiqot olib borgan adabiyotshunos Y.Ermatova “hozirgi o‘zbek qissachiligida yaratilgan ayollar obrazi va uning inja ruhiyatini tadqiq etish va o‘zbek ayolining turfa qiyofalarini turli davrlarda turlicha tasvirlandi. Masalan, egilgan, haq-huquqsiz ayollar, mafkuralashgan jamoatchi ayollar, ziyoli, erkin fikrli ayol qiyofalari yuz yildan ziyod o‘zbek qissachiligi taraqqiyotida namoyon bo‘ldi»<sup>35</sup>, deb ta‘kidlaydi. Ta‘kidlanganidek, ayol obrazi nafaqat davr nuqtai nazaridan, balki bizningcha janr jihatidan ham hikoyadan tortib romangacha markaziy o‘rinni egalladi.

Agar o‘zbek hikoyachiligida ijtimoiy jihatdan faol ayollar obrazi Abdulla Qahhorning ayrim hikoyalarida ko‘zga tashlansa, XX asr boshlarida yaratilgan Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» tarixiy romanidagi Kumush obrazi orqali o‘zbek ayollarining xusn-jamolida tengsizligi, yuzidagi pardozi ularning iffati va hayosida ekanligi va adolat yo‘lida dalilligi namoyon qilingan. O‘zbekoyim obrazida esa ilm-marifatsizligi, mol-dunyoga, dabdabaga o‘chligi sabab oilasining, jigarbandining baxtsizligiga sababchi bo‘lgani ko‘rsatilgan.

O‘zbek adabiyotida ayollar obrazining talqin etilishi borasida ayrim ilmiy tadqiqotlarga amalga oshirildi<sup>36</sup>. Mazkur izlanishlarda ayol obrazining turli aspektlarda o‘rganish maqsad qilingan bo‘lib, bizning ushbu tadqiqotimiz ham Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalaridagi ayollar obrazining badiiy va psixologik tasvirini tahlil etishga qaratilganligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

<sup>35</sup>Эшматова Ю. Истиклол даври киссачилигидаги аёллар руҳиятининг бадий талқини. Фил.ф.б.ф.д (PhD) диссертация. – Тошкент. 2020. – Б. 41.

<sup>36</sup> Bu haqda qarang: Эшматова Ю. Истиклол даври киссачилигидаги аёллар руҳиятининг бадий талқини. Фил.ф.б.ф.д (PhD) диссертация. – Тошкент. 2020. –137 б; Xoliqova N. Jadid adabiyotida ayollar timsoli. <https://cyberleninka.ru/article/n/jadid-adabiyotida-ayollar-timsoli/viewer>; Xalova M. Istiqlol davri she‘riyatida ayollar obrazi. So‘z san‘ati. Xalqaro jurnal. 2021-yil. 4-jild.2-son.B.81; Mavlonova N. Mustaqillik davri romanchiligida ayollar ruhiyati tasvir. <https://conferencea.org> June 30<sup>th</sup> 2022 B.375.

Yozuvchi hikoyalarda asosiy g'oyani ayollar obraziga yuklash orqali badiiy asar mohiyatini o'quvchiga to'laqonli yetkazib berishga erishiladi. Uning «Mubtalo», «Karomat», «Dahshat», «Parim bo'lsa...», «Namuna», «Alvido, go'zallik», «Muammo bormi?...» singari hikoyalarda o'zbek ayollarining o'ziga xos tabiati farzandlarining baxt-saodati, salomatligi, el orasida obro'si uchun qayg'urgan, bolalariga ibrat o'laroq o'zini yomon nigohlardan asragan mushtipar va mushfiq onalar siymosi, vafoli yorlar timsoli, shu bilan birga, go'zallik niqobi ortidagi ayyor, ikkiyuzlamachi ayollar obrazining ichki va tashqi qiyofasi, ruhiy hamda jismoniy holatlari tasviri orqali o'quvchi ko'z o'ngida gavdalandirilgan. Aynan shu vositalar hikoyalarning badiiy qimmatini oshirishga, asarning estetik ta'siri, yozuvchi va kitobxon o'rtasidagi munosabatni yaratishga zamin hozirlagan. Ayni xususiyatni yozuvchining «Mubtalo» hikoyasidagi ona obrazida ko'ramiz. Hikoyada farzandining jon azobida yotganiga chidolmagan ona oldida turgan yagona chora nosni og'riq qoldiruvchi vosita sifatida tishiga bosishi uchun ming jirkansa ham o'zida tajriba qilib ko'rsatib berishi natijasida o'zining ham unga mubtalo bo'lib qolishi muallif tomonidan ishonarli tarzda chizib beriladi. Hikoyaning boshqa bir o'rinda bola tilidan aytilgan quyidagi so'zlar farzandi uchun har qanday ruhiy iztiroblarga ham bardoshli ona qiyofasining o'quvchi tasavvurida jonlantirishga ko'mak beradi: «... Yerga qarab turgan onam miq etmadi. Ammo uning rangi ko'karib, vujudi nafratdan qaltirab ketganini ko'rdim, tishlari g'ichirlaganini, musht bo'lib tugilgan barmoqlari qisirlaganini eshitdim. Shunda ham onam meni tashlab ketmadi»<sup>37</sup>.

“Daxshat” hikoyasida esa bolalarining baxtli kunlari uchun joni azobda bo'lsa ham davolanishni kechiktirib ularning to'ylarida yelib yugurib xizmat qilgan ona tasvirlanadi. "Benihoya holdan toygan, bo'qog'i shishib, ko'zga tashlanib qolgan Zuhraning ojizgina tanasi hamon makkor xastalik bilan olishardi. Juvon anchayin loqayd, lanj ahvolda yurar, yelkasidan jun ro'molini tashlamas, dasturxon boshida jimgina o'tirar, ba'zan ikki gapni boshini qovushtirib aytolmas, og'ziga duch kelgan narsani solar va, aftidan, ta'mni ham his qilmasdan nimalardandir tortingach, qiynalib yutinar, joyiga arang sudralib yetib borar va tarrakdek qotib uxlar, sahar pallami nafasi qisilib uyg'onib ketar, so'ng o'pkasi uzilib ketguday darajada quv-quv yo'talgancha barmoqlarini sindirgan ko'yi, balki oshxona o'rtasida u yoqdan bu yoqqa yuraverardi, yuraverardi”<sup>38</sup>. Hikoya qahramoni shu zaylda og'riqlarni jimgina ichiga yutgan holda farzandlarining baxtini o'ylaydi. “Mayli qiynalsam men qiynalay, faqat bolajonimning to'yini o'tkazib olsam bo'ldi. Chidayman... Hammasiga chidayman...”<sup>39</sup>. Albatta, har

<sup>37</sup> Yo'ldoshev A. Mubtalo. Hikoyalar to'plami. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2023. – B.47.

<sup>38</sup> Ko'rsatilgan asar. B.87.

<sup>39</sup> O'sha asar. – B.82.

bir ona, har bir ayol farzandini ko‘z qorasidek asraydi, uning quvonchi uchun fido bo‘lishga tayyor turadi. Bejizga ayolga mehr-muhabbat timsoli sifatida qaralmaydi. Uning nafosati, latofati olamni rang-baranglik bilan bezaydi.

Adibning "Parim bo‘lsa..." hikoyasida ham ayolning go‘zalligi qalamga olinadi. "... Tishlari mayda, bir tekis, xuddi guruchday. Badan, yuz... oppoqdan oppoq... qorday desammikan, marmardaymi... Qosh ingichka qilib terilgan, kiprikliklar uzun-uzun. Nozik, qattiqro ushlang, uzilib tushadiganday barmoqlar... Anovi... kim ediya... ha, Otoy aytgan-ku, "G‘oyati nozukligidin suv bila yutsa bo‘lur"<sup>40</sup>. Abduqayum Yo‘ldoshev ayol obrazini yaratishda o‘ziga xos yondashgan holda tashbeh yaratadi, Otoyidan misra keltirish bilan obrazning qiyofasini yanada ravshan holda gavalantiradi.

"Alvido, go‘zallik" hikoyasida tog‘ning so‘lim qishlog‘idan tobora cho‘lga aylanayotgan ovulga kelin bo‘lgan qizning taqdiri uning tashqi qiyofasi orqali ochib beriladi. Marvarid momoning yangi tushirgan kelinining go‘zalligi-yu, shirin tilligi xususidagi ta‘riflar qishloq odamlarining tilidan tushmay qoldi. Yozuvchi shu o‘rinda uning tashqi portretini quyidagicha ifodalaydi: «To‘ydan keyin oradan ikki hafta o‘tar-o‘tmas, Muslim aka xotinini chopiqqa chiqardi. Shunda biz ko‘rdik, darhaqiqat, kelinchak juda chiroyli edi. Ismiyam jismiga monand: Oysuluv. Atlas ko‘ylak-lozim kiygan, yaltirab turgan sochi taqimini o‘padigan, oppoq yuzli, kiprikleri uzun-uzun, jismi nozikkina bu ayolni bolalar negadir «Kumush checha», deb chaqirishardi»<sup>41</sup>. Abduqayum Yo‘ldoshev voqealar davomida Oysuluvning iymanib yerga qarashidan, kamsuqumligidan uning bolalar kabi sodda, samimiy hamda pok qalb egasi ekanligini isbotlab beradi. Ammo ovuldagi hayot, turmush tarzi, atrofdagilarning munosabati uning go‘zalligini tez orada nobud qiladi.

Muallifning "Muommo bormi?..." hikoyasida insonlardan birgina tabassum kutib, lekin buning o‘rniga qo‘pol muomala olgan Ikromjonning qarshisida kutilmaganda unga jilmayib tikilib turgan ayol obrazi shunday tasvirlanadi: "Xuddi shu mahal... Ikrom buni kutmagandi, bunga hatto umid ham qilmay qo‘ygandi. Ammo yigit o‘z ko‘zlari bilan ko‘rdi: yo‘lning shundoqqina nargi tarafida turgan yigirma-yigirma besh yoshlardagi, ko‘hlikkina, chiroyli qomatini ko‘z-ko‘zlayotganday anchayin ochiq-sochiq libos kiygan juvon shu tomonga jilmayib qarab qo‘ydi"<sup>42</sup>. Ayolning birgina jilmayib boqishi Ikromning yetmish ikki tomiri bo‘shashishiga sababchi bo‘lsa, "Muommo bormi?" deya so‘rashi hayajoniga ming hayajon yukladi joyida taqqan to‘xtashga majbur qildi. Ammo har bir yaltiragan narsa olmos emasdek,

<sup>40</sup> O‘sha nashr. – B. 22.

<sup>41</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B.131.

<sup>42</sup> O‘sha asar. – B.235.

nafosatli ko‘ringan bu ayol ham kulgu ortida ish bitiruvchi soxta iltifotli bo‘lib chiqdi. "... Ikrom achom-achomlar orasida bir amallab ortiga o‘girildi. Ammo ryukzak joyida yo‘q edi. Ayol ham...". Hikoya so‘nggidagi bu jumlar orqali ayolning bu iltifotlarining asli maqsadini kitobxonlarga yetkazish bilan birga ularni hushyor tortishga undaydi.

Yuqorida keltirilgan hikoyalar tahlili davomida ko‘rinadiki, yozuvchi o‘ziga xosligi asarlaridagi ayollar obrazining xilma-xilligini, ularning xarakter xususiyati, ijtimoiy holati bilan bog‘lashda namoyon bo‘ladi. Fikrimizni Y. Eshmatovanning quyidagi fikri bilan dalillab o‘tamiz: " Abduqayum Yo‘ldoshev ayollar ruhiyatini badiiy kashf etishda an'anaviy realistik uslubdan foydalanadi, shu bilan birga uning qissalarida ramziy badiiy detallar, mantiqiy leytmotivni kuzatish mumkin, (jumladan, timsoh va u bilan bog‘liq tush kabi detallar) ular ayol ruhiyatini ishonarli ochishga xizmat qildirilgan"<sup>43</sup>. Bizningcha ham, yozuvchi ayol tasvirini yaratishda badiiy unsurlar bilan bir qatorda obrazning ruhiyatini to‘laqonli namoyon qilishda samarali vosita hisoblangan badiiy psixologizmdan mohirona foydalangan. Ruhiyatida kechayotgan jarayonlar tasviri orqali obrazni yaratishda yozuvchining uslubi boshqalar singari emasligidan dalolat beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalarda ayol obrazini yaratar ekan, uning ruhiy holati va ichki kechinmalarini ifodalovchi tashqi qiyofasidagi o‘zgarishlar hamda yuz ifodalarining har bir detallar vositasida obrazni kitobxon tassavvurida to‘laqonli jonlantira olgan. Shu jihatlarga ko‘ra ham yozuvchi qalamiga mansub hikoyalaridagi ayol obrazi muallifning asardagi poetik maqsadini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonova N. Mustaqillik davri romanchiligida ayollar ruhiyati tasviri. <https://conferencea.org> June 30<sup>th</sup> 2022.– B.375.
2. Yo‘ldoshev A. Mubtalo. Hikoyalar to‘plami. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2023. – 304 b.
3. Xalova M. Istiqlol davri she‘riyatida ayollar obrazi. So‘z san’ati. Xalqaro jurnal. 2021-yil. 4-jild.2-son. – B.81.
4. Xoliqova N. Jadid adabiyotida ayollar timsoli. <https://cyberleninka.ru/article/n/jadid-adabiyotida-ayollar-timsoli/viewer>.
5. Эшматова Ю. Истиклол даври қиссачилигидаги аёллар руҳиятининг бадий талқини. Фил.ф.б.ф.д (PhD) диссертация. – Тошкент. 2020. –137 б.

<sup>43</sup>Эшматова Ю. Истиклол даври қиссачилигидаги аёллар руҳиятининг бадий талқини. Фил.ф.б.ф.д (PhD) диссертация. – Тошкент. 2020. – Б.116